



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAHTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	



O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH

Abdullayev Axror Jaxbarovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, i.f.f.d.

ORCID: 0000-0001-7069-2442

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish sanoatida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining rivojlanganlik darajasini kompleks baholashning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Qurilish tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning investitsiyalarni jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy, moliyaviy, investitsion, innovatsion va ijtimoiy faolligini baholashga asoslangan integral indeks modeli ishlab chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonda qurilish sanoati va kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari qurilish korxonalarining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kompleks baholash mexanizmlaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, tadbirkorlik subyektlari, kichik biznes, integral indeks, iqtisodiy faollik, moliyaviy barqarorlik, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, samaradorlik, qurilish korxonalari, iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik muhiti, kompleks baholash.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the development level of entrepreneurial entities operating in the construction industry. The role of the construction sector in the national economy, particularly its contribution to investment attraction, infrastructure development, and employment creation, is analyzed. An integral assessment model based on economic, financial, investment, innovative, and social activity indicators of business entities is proposed. Furthermore, the development trends of the construction industry and small business entities in Uzbekistan are evaluated using statistical data. The findings highlight the importance of applying comprehensive assessment mechanisms to ensure the competitiveness and sustainable development of construction enterprises.

Keywords: construction industry, entrepreneurial entities, small business, integral index, economic activity, financial stability, investment activity, innovative development, competitiveness, efficiency, construction enterprises, economic growth, business environment, comprehensive assessment.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретико-методологические основы комплексной оценки уровня развития субъектов предпринимательства, осуществляющих деятельность в строительной отрасли. Раскрыта роль строительной отрасли в национальной экономике, её значение в формировании основного капитала, развитии инфраструктуры, привлечении инвестиций и создании новых рабочих мест. Предложена интегральная модель оценки, основанная на показателях экономической, финансовой, инвестиционной, инновационной и социальной активности субъектов предпринимательства. На основе статистических данных проведён анализ тенденций развития строительной отрасли и субъектов малого предпринимательства в Узбекистане. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости применения комплексных механизмов оценки для обеспечения конкурентоспособности и устойчивого развития строительных предприятий.

Ключевые слова: строительная отрасль, субъекты предпринимательства, малый бизнес, интегральный индекс, экономическая активность, финансовая устойчивость, инвестиционная активность, инновационное развитие, конкурентоспособность, эффективность, строительные предприятия, экономический рост, предпринимательская среда, комплексная оценка, устойчивое развитие.

KIRISH

Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning tarkibiy va funksional jihatdan eng murakkab tarmoqlaridan biri bo'lib, uning iqtisodiy tizimdagi o'rni, avvalo, asosiy kapitalni yaratish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish, hududiy rivojlanishni ta'minlash hamda investitsiya resurslarini real aktivlarga aylantirish funksiyalari bilan belgilanadi [1; 2]. Iqtisodiy nazariyada kapital qo'yilmalarning samarasi ko'p hollarda ishlab



chiqarish quvvatlarining yangilanishi, bozor infratuzilmasining rivojlanishi va tranzaksion xarajatlarning qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, qurilish sanoati iqtisodiy o'sishning ikkilamchi emas, balki uning moddiy asosini yaratuvchi tarmoq sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ishlab chiqarish korxonalari, logistika markazlari, transport-kommunikatsiya obyektlari, uy-joy fondi, ijtimoiy soha inshootlari va muhandislik tarmoqlari aynan qurilish faoliyati natijasida vujudga keladi. Demak, qurilish tarmog'i iqtisodiy tizimning faqat bir qismi emas, balki boshqa sohalarning faoliyat yuritishi uchun bazaviy sharoit yaratuvchi institutsional-moddiy poydevordir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish sohasida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik muammolari chet ellik olimlardan Voynarenko M.P., Xyubner V., Vasyutichev A.V., Gerber Maykl E., Gorfinkel V.Ya., Moseyko V.O., Yekimova K.V., Rube V.A., Xizrich R., Piters M., Bruksbank R., Uotermen R., A. Xoskinglarning asarlarida keng yoritilgan [3; 4; 5; 6]. "Tadbirkor" va "tadbirkorlik" tushunchalariga iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil qarash va yondashuvlar mavjud bo'lib, hozirda umumqabul qilingan aniq bir ta'rif shakllanmagan. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan amerikalik iqtisodchi P.F. Druker ta'kidlab o'tganidek, "ushbu termin Sey tomonidan kiritilganiga ancha vaqt bo'lganiga qaramasdan, biz haligacha "tadbirkor" va "tadbirkorlik" atamolari ta'riflarida chalkashliklarga yuz tutamiz".

Amerikalik olim, professor Robert Xizrich tadbirkorlikni qiymatga ega bo'lgan yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkorni esa ushbu jarayonni amalga oshirishda o'zining zarur vaqtini va kuchini sarflaydigan, o'z zimmasiga barcha moliyaviy, ruhiy va ijtimoiy tavakkalchilikni oladigan, mukofot sifatida foyda va erishganlaridan qoniqishga ega bo'ladigan shaxs sifatida ta'riflaydi. Amerikalik yana bir iqtisodchi olim, professor Alan Xosking ta'kidlaganidek: "Yakka tartibdagi tadbirkor bu o'z mablag'larini biznesga yo'naltirgan, biznesni shaxsan o'zi boshqaradigan va mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish, zarur mablag'larni taqdim qilish uchun shaxsan javobgar shaxs. Uning mukofoti tadbirkorlik faoliyati va erkin tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishidan qoniqish hissi natijasida olingan daromaddir. Shu bilan birgalikda, u korxonasi bankrotlik holatiga yuz tutganida barcha xavfni o'z zimmasiga olishi kerak".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik omillari hamda O'zbekistondagi holatini solishtirma tahlil qilish asosiy maqsad qilib olingan. Tadqiqotda qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan taklif va tavsiyalar hamda tegishli statistik ma'lumotlarni yig'ish va ularni qayta ishlashda zamonaviy statistik usullar va kuzatuvlar, qiyosiy va tizimli, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik subyektlari rivojlanishini baholashda har bir ko'rsatkichni alohida emas, balki umumiy indeks shaklida hisoblash natijani aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usul turli yo'nalishlar bo'yicha olingan ko'rsatkichlarni yagona kompleks bahoga birlashtiradi.

$$I = \sum (w_i \times x_i), i = 1, 2, \dots, n$$

Bu yerda: I — tadbirkorlik subyektlari rivojlanishining integral indeksi; x_i — alohida baholash ko'rsatkichi; w_i — har bir ko'rsatkichning ahamiyat koeffitsienti; n — ko'rsatkichlar soni.

Tadbirkorlik subyektlari rivojlanishini baholash — bu ularning soni, iqtisodiy faolligi, moliyaviy barqarorligi, investitsion imkoniyatlari, innovatsion salohiyati, raqobatbardoshligi, bandlikka ta'siri va resurslardan foydalanish samaradorligini kompleks ko'rsatkichlar tizimi asosida tahlil qilish jarayonidir.

Qurilish sanoati misolida bunday baholash tadbirkorlik subyektlari qanchalik barqaror rivojlanayotganini, ularning bozordagi ulushi ortib borayotganini, yangi ish o'rinlari yaratilayotganini, investitsiya va innovatsiyalar joriy etilayotganini, resurslardan samarali foydalanilayotganini hamda ular qurilish sanoatining umumiy rivojiga qanday hissa qo'shayotganini aniqlash imkonini beradi.

Qurilish sanoatida tadbirkorlik subyektlari, ya'ni qurilish korxonalarining rivojlanganlik darajasini kompleks baholash usuli orqali aniqlash mumkin. Bunda korxonaning faqat foydasi yoki tushumi emas, balki moliyaviy holati, ishlab chiqarish quvvati, investitsion faolligi, innovatsion salohiyati, bozordagi o'rni va raqobatbardoshligi birgalikda baholanadi (1-jadval).



№	Baholash yo'nalishi	Asosiy ko'rsatkichlar	Mazmuni
1	Iqtisodiy faollik	Tushum, bajarilgan qurilish ishlari hajmi, sof foyda, yalpi foyda	Korxonada bozorda qanchalik faol ishlayotganini ko'rsatadi.
2	Moliyaviy faollik	Rentabellik, likvidlik, qarz yuki, o'z mablag'lari ulushi	Korxonaning moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini baholaydi.
3	Ishlab chiqarish faolligi	Texnika, qurilish quvvati, ishchilar soni, mehnat unumdorligi	Korxonaning qurilish ishlarini bajarish imkoniyatini ko'rsatadi.
4	Investitsion faollik	Asosiy kapitalga investitsiyalar, yangi texnika xaridi, modernizatsiya xarajatlari	Korxonaning kengayish va yangilanish darajasini ifodalaydi.
5	Innovatsion faollik	BIM, raqamli smeta, elektron hujjat aylanishi, yangi texnologiyalar	Korxonaning zamonaviy texnologiyalarga moslashganini ko'rsatadi.
6	Raqobatbardoshlik	Tenderlarda ishtirok, g'oliblik ulushi, bozor ulushi, buyurtmalar soni	Korxonaning bozorda raqobatlasha olish qobiliyatini baholaydi.
7	Resurslardan foydalanish darajasi	Material sarfi, energiya tejamligi, texnikadan foydalanish darajasi	Xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini ko'rsatadi.
8	Ijtimoiy ta'sir	Yangi ish o'rinlari, xodimlar malakasi, ish haqi darajasi	Korxonaning bandlik va inson resurslariga ta'sirini ko'rsatadi.

Qurilish korxonalarining rivojlanganlik darajasini bitta umumiy indeks orqali baholash mumkin:

$$I_r = \sum_{i=1}^n w_i \cdot K_i$$

Bu yerda: I_r - qurilish korxonasining rivojlanganlik integral indeksi; K_i - har bir yo'nalish bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkich; w_i - har bir ko'rsatkichning ahamiyat koeffitsiyenti; n - baholanayotgan ko'rsatkichlar soni.

Moliyaviy ko'rsatkichlarning iqtisodiy samaradorligini yillar bo'yicha tahlil qilishda joriy yil natijasini oldingi yil natijasi bilan taqqoslash orqali dinamik koeffitsiyent hosil qilish mumkin. Agar barcha ko'rsatkichlar musbat qiymatga ega bo'lsa, joriy yil ko'rsatkichini oldingi yil ko'rsatkichiga bo'lish an'anaviy o'sish koeffitsiyentini beradi. Biroq sof foyda, yalpi foyda yoki ayrim moliyaviy natijalar manfiy bo'lgan holatlarda oddiy nisbat usuli iqtisodiy mazmunni noto'g'ri ifodalashi mumkin.

Manfiy qiymatlar mavjud bo'lishi ehtimoli bor moliyaviy ko'rsatkichlar uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$K_t = 1 + (X_t - X_{t-1}) / |X_{t-1}| \quad (1)$$

Bu yerda K_t - t-yil uchun dinamik koeffitsiyent; X_t - joriy yil ko'rsatkichi; X_{t-1} - oldingi yil ko'rsatkichi; X_{t-1} - oldingi yil ko'rsatkichining mutlaq qiymati. Ushbu yondashuv ko'rsatkichdagi o'zgarishni oldingi yil qiymatining mutlaq bazasiga nisbatan baholaydi.

Ushbu formula natijalar ijobiy bo'lgan holatlarda ham to'g'ri ishlaydi. Agar oldingi yil ko'rsatkichi musbat bo'lsa, ya'ni $X_{t-1} > 0$ bo'lsa, unda $|X_{t-1}| = X_{t-1}$ bo'ladi. Shu sababli formula quyidagi ko'rinishga keladi:

$$K_t = 1 + (X_t - X_{t-1}) / |X_{t-1}| \quad (2)$$

Matematik jihatdan ushbu ifoda an'anaviy o'sish koeffitsiyentiga teng:

$$K_t = X_t / X_{t-1} \quad (3)$$

Demak, ijobiy qiymatlarda mazkur formula oddiy "joriy yil / oldingi yil" nisbati bilan bir xil natija beradi. Bu uni universal hisoblash usuli sifatida qo'llash imkonini beradi.

1 Manba: muallif ishlanmasi.



Har bir ko'rsatkich bo'yicha dinamik koeffitsiyent hisoblab chiqilgandan so'ng, ularni umumlashtirish orqali ma'lum yil uchun integral indeksni aniqlash mumkin. Agar ko'rsatkichlarga alohida vazn berilmasa, arifmetik o'rtacha usuldan foydalaniladi:

$$I_t = (K_{1t} + K_{2t} + K_{3t} + \dots + K_{nt})/n \quad (4)$$

Bu yerda I_t - t-yil uchun umumiy integral indeks; $K_{1t}, K_{2t}, K_{3t}, \dots, K_{nt}$ - alohida moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha hisoblangan dinamik koeffitsiyentlar; n - ko'rsatkichlar soni.

Qurilish sanoati korxonalarini rivojlanganlik darajasini belgilovchi muallif tomonidan taklif etiladigan integral formula sifatida biz tomonimizdan keltirilgan bo'lib, ushbu formula quyidagicha ko'rinishga ega:

$$I_{rd} = w_1 \cdot I_f + w_2 \cdot I_{ch_f} + w_3 \cdot I_{inv_f} + w_4 \cdot I_{innov_f} + w_5 \cdot M_f + w_6 \cdot R_q + w_7 \cdot R_f + w_8 \cdot I_t \quad (5)$$

Bu yerda:

I_f - Iqtisodiy faollik;

I_{ch_f} - Ishlab chiqarish faolligi;

I_{inv_f} - Investitsion faollik;

I_{innov_f} - Innovatsion faollik;

M_f - Moliyaviy faollik;

R_q - Raqobatbardoshlik;

R_f - Resurslardan foydalanish darajasi;

I_t - Ijtimoiy ta'sir.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish sanoatida tadbirkorlik subyektlarining rivojlanganlik darajasi orqali ularning integral qiymatini baholash imkoni yaratiladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining rivojlanganligini baholashda an'anaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda kompleks va integral yondashuvlarni qo'llash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishida O'zbekistonda qurilish tarmog'i rivojlanishining iqtisodiy holati o'rganilgan. Shu bilan birga, turli mulkchilik shakllariga ega qurilish sanoati korxonalarining rivojlanganlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan hamda qurilish materiallari sanoati korxonalarini sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli yaratilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tugatilishi dinamikasi ham sezilarli tebranishlarni namoyon etadi. 2010–2013-yillar davomida tugatilgan subyektlar soni yiliga 18–20 ming birlik atrofida bo'lgan. Keyinchalik biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2016-yilda ko'rsatkich yana o'sib, 25,2 ming birlikka yetgan va 2019-yilgacha nisbatan barqaror darajada saqlangan. 2020-yilda ushbu ko'rsatkichning 9,9 ming birlikka tushishi pandemiya cheklovlari va hisobot talablari bo'yicha vaqtinchalik yengilliklarning ta'sirini aks ettiradi. Biroq ushbu davrdan keyin tugatilgan subyektlar soni keskin oshgan: 2021-yilda 46,9 ming, 2022-yilda 23,0 ming, 2023-yilda esa 30,2 ming birlikni tashkil etgan. So'nggi yillardagi tugatilish holatlarining ko'payishi tadbirkorlik subyektlari reyestrining "tozalash" jarayonlari, raqamli ma'lumotlar bazalarining modernizatsiyasi, soliq ma'murchiligining kuchayishi, shuningdek, tadbirkorlikning zamonaviy shakllariga — jumladan, o'zini o'zi band qilish va onlayn kommersiyaga o'tish jarayonlari bilan izohlanishi mumkin (2-jadval).

2-jadval
O'zbekiston Respublikasi hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni²

Hudud	2010	2015	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7135	9327	14677	18288	19998	22863	22066	17180
Andijon viloyati	14270	20872	25807	31683	34999	39038	24381	19967
Buxoro viloyati	9776	9386	19981	24809	27690	30082	27594	22615
Jizzax viloyati	5057	7505	14011	17725	19463	22474	16677	13534
Qashqadaryo viloyati	12099	15808	20304	25297	31152	36421	27980	22452
Navoiy viloyati	5253	6309	14885	17931	20472	22844	19539	16165
Namangan viloyati	9904	13080	21461	26531	28949	32305	23136	19547

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2025. – URL: <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 24.06.2026).



Samarqand viloyati	10626	12860	25643	33114	40724	47943	37398	31470
Surxondaryo viloyati	8946	9062	15509	21563	24395	27368	20589	19101
Sirdaryo viloyati	4811	6403	11026	13360	13808	15036	11217	8639
Toshkent viloyati	12293	19009	32602	40223	44156	49145	38953	34389
Farg'ona viloyati	12069	16920	29300	36117	40403	46350	36238	28076
Xorazm viloyati	8124	10393	15453	18875	21984	25616	23854	20528
Toshkent shahri	31883	39080	74108	85687	94641	106071	87458	84453

2010–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni dinamikasi tadbirkorlik faolligining barqaror o'sishini, shu bilan birga tarkibiy siljishlar va hududiy rivojlanishning differentsiyalashuvini namoyon etadi. Tahlil davrining boshida mamlakatda 152,2 mingta faol kichik korxonalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 358,1 ming birlikka yetgan.

Poytaxt Toshkent shahri tahlil davrining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni bo'yicha yetakchi o'rinni egallab keladi. 2010-yilda poytaxtda 31,8 mingta korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 84,4 ming birlikka yetib, 2,6 martadan ortiq o'sishni namoyon etgan. Toshkentda kichik korxonalar yuqori konsentratsiyasining shakllanishi rivojlangan infratuzilma, aholi zichligi, yuqori xarid qobiliyati, xizmatlar sohasi va elektron tijoratning faol rivojlanishi, shuningdek, raqamli yetuklik darajasi yuqori bo'lgan tadbirkorlik muhiti mavjudligi bilan izohlanadi. Poytaxt yangi biznes modellari shakllanishi, marketing texnologiyalarini joriy etish va raqamli platformalarni integratsiya qilishning asosiy markazi bo'lib, bu kichik biznes sektorining tizimli ravishda tezlashgan o'sishini ta'minlaydi.

Yuqori tadbirkorlik faolligiga ega hududlar qatoriga Farg'ona, Samarqand, Andijon va Qashqadaryo viloyatlari kiradi. Masalan, Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2010-yildagi 12,3 ming birlikdan 2025-yilda 23,5 ming birlikka yetgan, Samarqand viloyatida esa ushbu ko'rsatkich 11 mingdan 27,9 ming birlikka oshgan. Mazkur hududlar zich iqtisodiy tuzilma, oilaviy biznesning faol rivojlanishi, ichki bozor o'sish sur'atlarining yuqoriligi hamda savdo va xizmat ko'rsatish amaliyotlarining bosqichma-bosqich raqamlashtirilayotgani bilan tavsiflanadi. Andijon viloyatida ham shunga o'xshash tendensiya kuzatiladi: faol korxonalar soni 2010-yildagi 14,3 mingdan 2025-yilda qariyb 20 ming birlikka oshgan (3-jadval).

3-jadval. 2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyotida KBXTning ulushi ko'rsatkichlari³

Iqtisodiyot tarmoqlari	Ulushi, % da	Yangi tashkil etilgan KBXT subyektlari, ming ta
Qurilish	76,5	3,9
Savdo	84,0	12,8
Xizmatlar	57,0	13,6
YAIM	56,0	
Eksport	33,3	
Sanoatda	32,4	12,8
Qishloq xo'jaligi		9,1

Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari volatilligi mavjud bo'lsa-da, ijobiy dinamika namoyon etadi. Masalan, Buxoro viloyatida faol subyektlar soni tahlil davri davomida 9,8 mingdan 19,0 ming birlikka oshgan. Bunga turizm sektorining rivojlanishi, agrobiznesning kengayishi va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari yordam bergan. Surxondaryo viloyatida kichik korxonalar soni 8,3 mingdan 19,1 ming birlikka o'sgan bo'lib, bu agrar ishlab chiqarishning kengayishi, savdo faolligining oshishi va xizmatlar sohasida bandlikning ko'payishi bilan izohlanadi. Xorazm viloyatida esa ko'rsatkich 8,1 mingdan 20,5 ming korxonagacha oshgan. Bu holat agrar va turizm sohaslarida kichik biznes mavqeyining mustahkamlanishi, shuningdek, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan raqamli vositalarning joriy etilishi bilan bog'liq.

KBXT subyektlari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangani holda, ular nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlik va innovatsiyalar rivojlanishida ham muhim vazifa bajaradi. Respublikamiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida KBXT muhiti sezilarli yaxshilanib, yangi imkoniyatlar yaratilgani holda, tadbirkorlikni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

3 Manba: muallif ishlanmasi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, qurilish sanoati iqtisodiy tizimda faqat yordamchi emas, balki asosiy drayver tarmoqlardan biri hisoblanadi. Uning rivoji boshqa sektorlarning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari — yuqori risk, ko'p subyektkli boshqaruv tizimi va uzoq sikllilik — samarali boshqaruv mexanizmlarini talab qiladi. Ayniqsa:

- loyiha boshqaruvi;
- risklarni boshqarish;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- institutsional muhitni yaxshilash katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ekologik talablarning kuchayib borishi qurilishda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etishni zarur qilib qo'yimoqda.

Qurilish sanoati iqtisodiy tizimning strategik tarmog'i bo'lib, u kapital shakllanishi, infratuzilma rivoji, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, ushbu tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari uni rivojlantirishda maxsus yondashuvlarni talab qiladi. Qurilish sanoatida samarali boshqaruv va tadbirkorlik muhitini shakllantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. Infrastructure Investment: Trends and Policy Challenges. – Paris: OECD Publishing, 2015. – 156 p.
2. Égert B., Kozluk T., Sutherland D. Infrastructure and Growth: Empirical Evidence // OECD Economics Department Working Papers. – Paris: OECD Publishing, 2009. – No. 685. – 42 p.
3. Войнаренко М.П. Кластерные технологии в системе развития предпринимательства, интеграции и привлечения инвестиций [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.unice.org/ie/wp8/documents/novsem.htm> (дата обращения: 24.06.2026).
4. Хюбнер В. Сектор малых и средних предприятий в Казахстане, Кыргызстане и Узбекистане: ожидания, действительность и потенциал // Центральная Азия 2010: Перспективы человеческого развития. – Алматы, 2010. – С. 130–145.
5. Васютичев А.В. Предпринимательская деятельность на рынке строительных услуг (на материалах Калужской области): дисс. ... канд. экон. наук. – Москва, 2003. – 186 с.
6. Гербер М.Э. Малый бизнес: от иллюзий к успеху. Возвращение к мифу предпринимательства / пер. с англ. – М.: Олимп-Бизнес, 2005. – 240 с.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – Toshkent, 2025. – URL: <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 24.06.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
